

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

“Kiritdi”

**Namangan to'qimachilik
sanoati instituti rektori**



 **Q.Xoliqov**

06 2024-y

“Tasdiqlayman”

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



 2024-y

**IJODIY(KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60210400 – Dizayn: to'qimachilik va yengil sanoat dizayni ta'lim
yo'nalishi uchun**

Namangan-2024

Dastur Namangan to'qimachilik sanoati instituti (NamTSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2024 yil "16" may, 10- sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

NamTSI "Dizayn" kafedrasi mudiri M.A.Nazarova

NamTSI "Dizayn" kafedrasi katta o'qituvchisi
R.A.Abduraxmonov

NamTSI "Dizayn" kafedrasi katta o'qituvchisi
B.Xamroxov

Taqrizchi:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
"Dizayn" kafedrasi mudiri, dotsent U.Voxidova

KIRISH

O'zbekistonda to'quv-trikotaj va engil sanoatni hamda moda industriyasini rivojlanishi, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunolari yangi avlodining paydo bo'lishi – bularning barchasi kasbiy kompetensiyani mukammal egallagan mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, an'anaviy liboslar, ularning tarixi va bezaklariga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ibratli an'ana va qadriyatlarimizni asrab avaylash, madaniyatimiz va san'atimizni tobora rivojlantirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning badiiy did va tafakkurini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **“Kompozitsiya”** va **“Chizmatasvir”** fani zaruriyati juda katta.

“Kompozitsiya” fanini bajarish Dizayn: to'qimachilik va yengil sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv jarayoni davomida katta ahamiyatga ega bo'lganligi va “Chizmatasvir” fani esa talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi mumkin ekanligini inobatga olgan holda ijodiy (kasbiy) imtihon ballarini quyidagicha taqsimlash mumkin:

Fan nomi	Jami ball
Kompozitsiya	93
Chizmatasvir	63
	156

I. Ijodiy (kasbiy) imtihonning maqsad va vazifalari

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko'nikmalarini aniqlash.

Kompozitsiya – barcha san'at turlarini asosiy tushunchasi bo'lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o'ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko'nikmalarni xosil qiladi.

Chizmatasvir – barcha tasviriyl san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadga erishish ichun abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlash vazifasi belgilanadi:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g'oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o'zaro uyg'unligi.

II. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

2.1. "Kompozitsiya" fani bo'yicha:

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g'oyaviy mazmundorligi;
- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to'g'ri ishlatilganligi;
- matolarda ifodalangan ornamentlarni mavzuga mosliga va badiiy yechimga ega ekanligi;
- chizilgan eskizlarning bir-biriga uyg'unligi, elementlarning to'g'ri topilganligi;
- berilgan topshiriqning mazmuni, ma'nosi to'liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

2.2. "Chizmatasvir" fani bo'yicha

- Chizmatasvirni kompozitsiya va perspektiva qoidalariga rioya qilgan xolda bajarish;
- Chiziqlar yordamida tasvirni to'g'ri ifodalash;
- Tasvirning shaklini yorug' va soyalarni shitrixlar yordamida aniq ifodalash.
- Faktura va bezaklarni qora qalam yordamida bajarish (shitrixlash)

III. Ijodiy (kasbiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

- "Kompozitsiya" va "Chizmatasvir" fanlari bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi;

- Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi;

- Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi;

- Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi;

- Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi;

- Har bir auditoriyada abituriyentlar bilek tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar;

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;

- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlar;

- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);

- yumshoq o'chirg'ichlar;

- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;

- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish;

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi;

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va qurushi uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish;

- Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi;

- Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iy qat'iy taqiqlanadi;

- Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim;

- Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" va "Chizmatasvir" fanlari bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi;

- Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi);

- Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalariga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

IV. 60210400 – Dizayn: to'qimachilik va yengil sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi uchun chizma tasvir va kompozitsiya bo'yicha ijodiy imtihoni uchun mavzular ro'yxati

1. Sport uslubidagi ayollar kiyimi to'plami.
2. Bolalar kiyimi to'plami.
3. Klassik uslubidagi ishbilarmon ayollar kostyumi.
4. Romantik uslubidagi ayollar bashang kiyimi to'plami.
5. Erkaklar sport uslubidagi kiyimi to'plami.
6. O'zbek milliy kostyumi elementlarini qo'llab yoshlar kiyimi to'plami.
7. Pret-a-porte uslubidagi ayollar kundalik kiyimi to'plami.
8. Milliy uslubdagi ayollar kiyimi to'plami.

V. Ijodiy (kasbiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

“Kompozitsiya” fani bo'yicha:

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo'yicha milliy liboslar to'plami kompozitsiyasi bajariladi. Libos matolarida qo'llanilgan ornamentlarga ham e'tibor qaratiladi.

Kompozitsiya 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **3 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **93**-balli shkala bo'yicha baholanadi.

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Kostyum kompozitsiyasini qog'ozga kompozitsion to'g'ri joylashtirish	20
	Tasvir qog'ozda kompozitsion to'g'ri joylashtirilgan	20
	Qisman kompozitsion xatoga yo'l qo'yilgan	15
	To'g'ri komponovkaning yo'qligiga	0
2	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi va kreativligi.	20
	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy	20

	yechimi ifodalanganligi va kreativ yondashuv mavjudligi	
	Kompozitsiya mavzuga mos kelganda, zamonaviy moda yo'nalishi va dizayn talablariga qisman mos kelganda va kreativ yondashuv mavjudligi	15
	kompozitsiya mavzuga mos kelmaganda, kreativ yondashuv mavjudmasligi	0
3	Kompozitsiya detallarini to'g'ri proportsiyalarda ifodalanganligi	20
	Kompozitsiya detallarini to'g'ri proportsiyalarda ifodalanganligi	20
	Kompozitsiya detallarini to'g'ri proportsiyalarda qisman ifodalanganligi	14
	Kompozitsiya detallarini to'g'ri proportsiyalarda noto'g'ri topilganligi	0
4	Kostyumlar shakli, chiziqlari, ranglar va bezaklari jihatidan zamonaviy dizayn talabalariga mos kelishi	13
	Kostyumlar shakli, chiziqlari, ranglar va bezaklari jihatidan zamonaviy dizayn talabalariga mos kelishi	13
	Kostyumlar shakli, chiziqlari, ranglar va bezaklari jihatidan zamonaviy dizayn talabalariga qisman mos kelishi	10
	Kostyumlar shakli, chiziqlari, ranglar va bezaklari bajarilmaganligi, zamonaviy dizayn talabalariga mos kelmasligi	0
5	Kompozitsiyada ranglar umumiyligining aniq topilganligi	10
	Kompozitsiyada ranglar umumiyligining aniq topilganligi	10
	Kompozitsiyada ranglar umumiyligining qisman topilganligi	8
	Kompozitsiyada ranglar umumiyligining topilmaganligi	0
6	Kompozitsiyaning to'liq tugallanishi	10
	Kompozitsiyaning to'liq tugallanishi	10
	Kompozitsiyaning qisman tugallanishi	8
	Kostyum elementlari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan, liboslar kompozitsiyasi tugallanmagan	0
	Jami	93

“Chizmatasvir” fani bo'yicha:

Chizmatasvir 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **2 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning chizmatasvir ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **63**-balli shkala bo'yicha baholanadi.

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Tasvirni qog'ozga kompozitsion to'g'ri joylashtirish	20
	Tasvirni qog'ozga kompozitsion to'g'ri joylashtirish	20
	Tasvirni qog'ozga qisman joylashtirish	16
	To'g'ri joylashmaganligi	0
2	Chiziqlar yordamida tasvirni ifodalash	18
	Chiziqlar yordamida tasvirni ifodalash	18
	Chiziqlar yordamida tasvirni qisman ifodalash	10
	Chiziqlar yordamida tasvirni ifodalanmaganligi	0
3	Faktura va bezaklarni qora qalam yordamida bajarish(shitrixlash)	15
	Faktura va bezaklarni qora qalam yordamida bajarish(shitrixlash)	15
	Faktura va bezaklarni qora qalam yordamida qisman bajarish(shitrixlash)	10
	Faktura va bezaklarni qora qalam yordamida bajarilmaganligi	0
4	Tasvirni to'liq tuganlanligi	10
	Kostyum elementlari to'liq tuganlanligi	10
	Kostyum elementlari qisman umulashtrilgan va yakunlangan	8
	Kostyum elementlari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan, liboslar kompozitsiyasi tugallanmagan	0
	Jami	63

Izoh: Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi. Yuqorida keltirilgan shartlarga to'liq javob bergan abituriyentlarga, ko'p ballik baholash tizimi asosida “Kompozitsiya” va “Chizmatasvir” fanlaridan maksimum **156 ball** qo'yiladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

VI. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab **24** soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Sulaymonov, S. Muhamedjanova, Z. Sulaymonova, D. Xaytmetov. Tasviriy san'at, T. 2022.
2. X. Muratov, D. Mirxakimova, K. Abdullayev. Tasviriy san'at, T. 2022.
3. T. Qo'ziyev. Tasviriy san'at, T.-2015.
4. T. Qoziyev. A. Egamov. Rangtasvir, T. 2003
5. A. Egamov . Kompozitsiya asoslari, T. 2005